

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH**

Sitmuratov O'ktam Tengelovich,
Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari faoliyatini baholash va prognozlashga bag'ishlangan. Rivojlanayotgan iqtisodiy muhit va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida kichik biznes mintaqa barqaror rivojlanishining muhim elementiga aylanmoqda. maqolada kichik biznes sohasidagi mavjud tendentsiyalar tahlil qilinib, uning samaradorligi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Statistik tahlil va modellashtirish usullaridan foydalangan holda kelgusi yillarda sohani rivojlantirish prognozlari, shuningdek, biznes sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalarni taklif ishlab chiqilgan.

Аннотация. Статья посвящена оценке и прогнозированию деятельности субъектов малого предпринимательства в Республике Каракалпакстан. В условиях динамично меняющейся экономической среды и растущей конкуренции, малый бизнес становится важным элементом устойчивого развития региона. В работе анализируются текущие тенденции в сфере малого предпринимательства, выявляются ключевые факторы, влияющие на его эффективность и конкурентоспособность. Используя методы статистического анализа и моделирования, автор предлагает прогнозы развития сектора на ближайшие годы, а также рекомендации по улучшению условий для ведения бизнеса.

Annotation. The article is devoted to the assessment and forecasting of small businesses in the Republic of Karakalpakstan. In conditions of dynamically changing economic environment and growing competition, small business becomes an important element of sustainable development of the region. The paper analyses current trends in the sphere of small business, identifies key factors affecting its efficiency and competitiveness. Using the methods of statistical analysis and modelling, the author offers forecasts of the sector's development for the coming years, as well as recommendations for improving the business environment.

Kalit so'zlar. Kichik biznes, model, regression tahlil, determinatsiya koeffitsiyenti, Student mezon, Durbin-Watson statistikasi.

Ключевые слова. Малый бизнес, модель, регрессионный анализ, коэффициент детерминации, критерий Стьюдента, статистика Дурбина-Ватсона.

Keywords. Small business, model, regression analysis, coefficient of determination, Student's criterion, Durbin-Watson statistics.

Kirish

Hozirgi innovasion iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy jarayonlarni tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiyalash davrida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ilmiy asoslangan statistik ko'rsat kichiklar tizimi asosida chuqur tahlil qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning mavjud imkoniyatlarini belgilash hamda rivojlanish tendensiyalarini prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan statistik tahlil va ekonometrik modellashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy-uslubiy ta'minlash uchun muhim ko'rsatkichlarni tuzish va prognozlashtirishning uslubiy masalalarini xalqaro talablarga muvofiq olib borish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini samarali tashkil etish muammosi hukumatimizning va mutaxassis-olimlarning doimiy e'tiborida. Bu borada Respublikamiz Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qator farmon va qarorlari qabul qilinmoqda, respublika va xalqaro miqyoslarda anjumanlar o'tkazilmoqda. Shunday ekan kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirish maqsadida "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Ushbu strategiyaning 3-bo'limi "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" deb nomlanib, 29-maqсадida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" ko'zda tutilgan [1].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda KBXT faoliyatini hududlarda rivojlantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, kichik tadbirkorlik subyektlari sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini bilan kooperasiyaga asoslangan holda mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini samarali tashkil etishda kichik korxonalarini diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish bilan birga ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish muhim o'rinni egallaydi.

Asosiy qism.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining taraqqiyotini ta'minlashda nafaqat ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar balki iqtisodiy taraqqiyotning barqarorlik darajasi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasini ta'minlashda tarmoqlarning rolini baholash masalasiga e'tibor qaratib o'tildi. Bunda tarmoqlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari yashovchanlik koeffitsienti o'zgarishini, mintaqa kesimidagi umumiy ko'rsatkichga ta'siri baholab o'tildi. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun 2014 – 2024 yillar ma'lumotlaridan foydalanildi. Regression tahlil natijalari asosida quyidagi modelga ega bo'lindi.

$$JK = 0,18 * QXK + 0,21 * SK + 0,07 * QK + 0,23 * SAK + 0,05 * TSK + 0,02 * YOK + 0,05 * AAK + 0,03 * SSK + 0,15 * BK$$

Bu yerda: QXK – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida kichik tadbirkorlik subyektlarini faollik darajasi, foizda; SK - sanoatda kichik tadbirkorlik subyektlarini faollik darajasi, foizda; QK – qurilishda kichik tadbirkorlik subyektlarini faollik darajasi, foizda; SAK – savdoda kichik tadbirkorlik subyektlarini faollik darajasi, foizda; TSK – tashish va saqlash sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlarini faollik darajasi, foizda; YOK – yashash va ovqatlanish byo'icha xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasi, foizda; AAK – axborot va aloqa sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasi, foizda; SSK – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar byo'icha xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasi, foizda; BK – boshqa sohalardagi kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasi, foizda.

Ozod hadni mavjud mezonlar bo'yicha adekvat bo'lmaganligi sababli uni modeldan chiqarib tashlandi. Modelning ishonchlilik darajasini baholash uchun mezonlar natijalarini keltirib o'tamiz. Student mezon natijalari barcha koeffitsientlarning yuqori darajada ishonchli ekanligini asoslamogda va ularning ehtimollik ko'rsatkichlari 99,9 foizdan katta. Bundan tashqari determinatsiya koeffitsientining birga teng bo'lishi mintaqada kichik tadbirkorlik

subyektlari faollik darajasini o'zgarishlarining to'liq tarmoqlar kesimidagi o'zgarishlarga bog'liq ekanligini asoslamoqda. Bundan tashqari MAPE (Mean Absolute Percentage Error) ko'rsatkichini 0,0002 ga tengligi modeldagi xatolik darajasini nolga yaqinligini asoslaydi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasiga tarmoqlar kesimidagi o'zgarishlar ta'sirini baholash natijalari

Model 7: OLS, using observations 2014-2024 (T = 11)

Dependent variable: JK

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
QXK	0.181993	0.000454263	400.6	<0.0001	***
SK	0.212571	0.000343603	618.7	<0.0001	***
QK	0.0714490	0.000372611	191.8	<0.0001	***
SAK	0.226806	0.000540809	419.4	<0.0001	***
TSK	0.0540488	0.000241398	223.9	<0.0001	***
YOK	0.0237550	0.000439049	54.11	0.0003	***
AAK	0.0512825	0.000241030	212.8	<0.0001	***
SSK	0.0286741	0.000211572	135.5	<0.0001	***
BK	0.150960	0.000674710	223.7	<0.0001	***
Mean dependent var	91.66550		S.D. dependent var	6.557186	
Sum squared resid	3.47e-07		S.E. of regression	0.000417	
Uncentered R-squared	1.000000		Centered R-squared	1.000000	
F(9, 2)	5.94e+10		P-value(F)	1.68e-11	
Log-likelihood	79.38389		Akaike criterion	-140.7678	
Schwarz criterion	-137.1867		Hannan-Quinn	-143.0251	
rho	-0.756365		Durbin-Watson	3.465332	

Aniqlanilgan koeffitsientlar mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasini ta'minlashda savdoning ahamiyati yuqori, ya'ni savdoda kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasini bir foizga oshishi umumiy ko'rsatkichni 0,23 foizga oshishini ta'minlaydi. Ahamiyatlilik nuqtai nazaridan keyingi o'rinlarda sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari kelib ular ta'sirini ifodalovchi koeffitsientlar mos ravishda 0,21 va 0,18 tengligi aniqlanilgan.

Statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan tahlil natijalarini ko'rsatishicha 2023 yilda mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasining pasayishi kuzatilgan bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri sifatida tadbirkorlik subyektlarini tarmoqlar kesimidagi mutanosibli buzilishini ko'rsatish mumkin. Statistik ma'lumotlar hamda yuqorida keltirilgan tahlil natijalari ushbu xulosalarimizni asoslamoqda.

Natijalar va xulosa

Tahlillarni ko'rsatishicha mintaqad kichik tadbirkorlik subyektlari faollik darajasini ta'minlashda, tarmoqlar kesimidagi mutanosib rivojlanishga erishish lozim. SHuningdek, tarmoqlar kesimidagi ta'sirni bahola natijalariga ko'ra savdo, sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi o'zgarishlarning oqibatlarini ahamiyatli ekanligini asoslanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60-сонли Фармони, 2022 йил 28 январь // www.Lex.uz
2. Classen, N., Carree, M., Van Gils, A., & Peters, B. (2014). Innovation in family and nonfamily SMEs: An exploratory analysis. *Small Business Economics*, 42(3), 595–609. <https://doi.org/10.1007/s11187-013-9490-z>
3. Kraus, S., Clauss, T., Breier, M., Gast, J., Zardini, A., & Tiberius, V. (2020). The economics of COVID-19: Initial empirical evidence on how family firms in five European countries cope with the corona crisis. *International Journal of Entrepreneurial Behavior and Research*, 26(5), 1067–1092. <https://doi.org/10.1108/ijebr-04-2020-0214>;
4. Leppäaho, T., & Ritala, P. (2021). Surviving the coronavirus pandemic and beyond: Unlocking family firms’ innovation potential across crises. *Journal of Family Business Strategy*, 100440. <https://doi.org/10.1016/j.jfbs.2021.100440>;
5. Breier, M., Kallmuenzer, A., Clauss, T., Gast, J., Kraus, S., & Tiberius, V. (2021). The role of business model innovation in the hospitality industry during the COVID-19 crisis. *International Journal of Hospitality Management*, 92, Article 102723. <https://doi.org/10.1016/j.ijhm.2020.102723>

